


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



SHARQ EPIGRAFIKASI
fanining o'quv dasturi (sillabusi)

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	230 000 – Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60230300 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik (O'zbek tili)

Toshkent-2023

Fan/modul kodi 302 SHE 3 7		Fan/modul turi tanlov		Ta'lim tili o'zbek		Ishlab chiqilgan o'quv yili 2023/2024				
Semestr	Har bir semestrda modulning nomi	ECTS - Kreditlar	Haftalik dars soatlari	O'quv mashg'ulotlari (soat)					Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
				Jami:	ma'ruza	seminar	amaliy	laboratoriya		
5	Sharq epigrafikasi	7	6	90	28	10	52	0	120	210
	Jami:	7	6	90	28	10	52	0	120	210

1. FANNING MAZMUNI

Fanning maqsadi – adabiyotshunoslik va tilshunoslikni bog'lovchi sharq matnshunoslik ilmining o'rganiladigan fundamental masalalari yuzasidan nazariy bilim, malaka va ko'nikmasi hosil qilish, so'nggi davrlarda qadimiy qo'lyozma manbalari o'rganish bo'yicha hukumatimiz tomonidan e'lon qilingan qaror va farmonlar asosida yosh avlodni tarbiyalash hamda kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishlari uchun zamin hozirlashdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarda matnshunoslikning tushunchaviy apparati, mumtoz va zamonaviy matn qo'lyozmalarini qiyosiy o'rganish asoslari, tayanch nusxani belgilash tamoyillari, mukammal nusxani yaratish usullari, keyingi tadqiqotlar uchun asos bo'ladigan qarashlar tizimini yaratish kabi masalalarni kompleks tadqiq etish.

2. FANNI O'QITISH NATIJALARI VA SHAKLLANADIGAN KASBIY KOMPETENSIYALAR

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- matnshunoslikda va tilshunoslikdagi matn tushunchasining farqi, arab yozuvi tarixi, matnshunoslikning dolzarb muammolari, tabdil, transkripsiya, transliteratsiya, mumtoz matnlarni tushinishda lug'at ilmining o'rni *haqida bilimlarga*;
- Sharq mumtoz xatlaridagi toshbosma va qo'lyozma kitoblarni o'qiy olish, XX asr boshi isloh qilingan alifboni o'qib tushunish, nazmni nasriy bayon qilish, mumtoz matnni muxtasar va to'la sharhlash, adabiy manbani tasniflash *ko'nikmalariga*;
- Qo'lyozma kitobda unvonning ahamiyatini, mumtoz matnda ilmiy ko'rsatkich imkoniyatini, qo'lyozma turlarini, katologlardagi ilmiy tavsif tuzilishlari haqida *malakaga ega bo'lishi lozim*.

- Sharq qo'lyozmalarini o'rganishning muhim nazariy masalalari: yozuv va qo'lyozma turlari, kitobat san'ati, asarlarning mazmuni va ichki tuzilishi, asar tili, qog'ozi, kotibi va xattotlari, umuman arab yozuvidagi kitoblarning kodikologiyasini bilish kerak;
- Arab yozuvidagi kitobning xat turi, qog'ozi, muqovasiga qarab uning davri, yozilgan joyi, asl yoki nusxa ekani, barcha kodikalogik muammolariga javob berish va zarur bo'lgan o'lchovlarni faqlash ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak;
- shuningdek, arab, fors, urdu, pashtu, eski o'zbek yozuvidagi qo'lyozmalar farqiga borib, ulami o'rganib va tavsif etish, tarjima va tahlil salohiyatiga ega bo'lib, olgan bilim va ko'nikmalarini ishlatib bilish va ulardan foydalana olish malakasiga ega bo'lish talab etiladi

3. O'QUV FANI O'QITILISHI BO'YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

- ma'ruzalar;
- qo'lyozmalarni mustaqil o'qiy olish;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

4. TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI:

Talabalarning bilimni baholash tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risida"gi Nizom talablari asosida belgilanadi.

1. Nazoratlarni amalga oshirish tartibi.

Oraliq nazorat: O'tilgan mavzular asosida yozma shaklda o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat: Semestr davomida o'tilgan mavzular bo'yicha yozma shaklda o'tkaziladi.

Izoh: Oraliq nazorat turi har bir fan bo'yicha fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 2 martagacha o'tkazilishi mumkin.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi.

Nazoratlarning o'tkazilishi muddatlari muayyan o'quv yilida tasdiqlangan o'quv jarayoni jadvali asosida tashkil etiladi.

2. Talabalarning bilimi baholash mezonlari:

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **5 (a'lo) baho**;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **4 (yaxshi) baho**;

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **3 (qoniqarli) baho**;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning mohiyatini tushunmaydi hamda fan bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

5. O'QUV MASHG'ULOTLAR QISMI

5-SEMESTR

1. Ma'ruza mashg'ulotlari

№	Ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Dars soatlari hajmi
1.	Manba va matn, kitobat san'ati	Yozuvning paydo bo'lishi. Yozuv qurollari va materiallari: tosh, teri, papirus, yog'och, qog'oz, qalam, dovot. Piktografik yozuvlar.	2
2.	Transkripsiya, ilmiy transliteratsiya va tabdil	Tekstologik jihatdan transkripsiya, ilmiy transliteratsiya va tabdil	2
3.	Hijriy yilni milodiy yil hisobiga tabdil qilish formulalari	Yil hisobi, hijriy va milodiy yil, abjad hisobi, muammo hamda tarix san'ati	2
4.	Sharq qo'lyozmalarini o'qish va tabdil qilish	Mumtoz matn bilan ishlashda lisoniy birlikliklarning o'rni, mumtoz matn amaliyotida tilshunoslik ilmining ahamiyati, matnshunoslikning faoliyat turlari	2
5.	Qo'lyozma manbalarning faksimil nashrlari	Katalog yaratish, qiyosiy nusxalarni solishtirish, mo'tabar nusxa, qo'lyozma va bosma manbalarni elektron nusxasini yaratish	2
6.	Qo'lyozma manbalardan tarixiy sanalar va o'rganilgan davr manbalarini aniqlash	Hijriy yil, milodiy yil, tarix hamda muammo san'ati. Manbalarni davrlashtirish	2
7.	O'rganilgan davr manbalarini o'qish va tavsiflash	manbashunoslik va matnshunoslik malakasi. Adabiy til rivojlanishining ijtimoiy-tarixiy voqealar bilan bog'liqligi. Adabiy til turlari. Uslublar taraqqiyoti. Adabiy til rivojining mumtoz matn taraqqiyotida tutgan o'rni	2
8.	Qo'lyozma hujjatlarning shakllari va turlari	Qog'oz turlari, tekstologik tahlil, davriy jihatdan o'rganish	2
9.	Qo'lyozma hujjatlar holatini	Qog'oz turlari, tekstologik	2

	monitoring qilish va qayd etish	tahlil, davriy jihatdan o'rganish	
10.	Qo'lyozma hujjatlarni ta'mirlashda foydalaniladigan asosiy materiallar	Qog'oz turlari, tekstologik tahlil, davriy jihatdan o'rganish, qo'lyozmani konservatsiyalash va ta'mirlashning bosqichlari	2
11.	Tarixiy hujjatlarni konservatsiyalash va ta'mirlashning bosqichlari	Qog'oz turlari, tekstologik tahlil, davriy jihatdan o'rganish, qo'lyozmani konservatsiyalash va ta'mirlashning bosqichlari	2
12.	Sharq tillaridagi arxiv hujjatlarini o'qish amaliyoti	Adabiy manbalar matnshunosligida ixtisoslik malakasi. Ma'rifat asoslaridan xabardorlik masalasi. Mumtoz matnni tahqiq qilish qoidalari	2
13.	Tarixiy hujjatlardan to'g'ri foydalanishni tashkil qilish	Fanning bibliografik resursi. Qo'llanmalarga umumiy obzor. Qo'llanma mavzularini belgilashdagi ilmiy mezon	2
14.	Qo'lyozma manbalar yuzasidan dastlabki ilmiy xulosa tayyorlash	Qo'lyozma nusxani davri, muallifi, adabiy muhiti, asar tarkibi hamda tasnifi.	2
Jami:			28 s

2. Amaliy mashg'ulotlar

№	Amaliy mashg'ulot mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Dars soatlari hajmi
1.	"Sharq epigrafikasi" kursining predmeti, kursning metodologik asoslari, maqsad va vazifalari	Yozuvning paydo bo'lishi. Yozuv qurollari va materiallari: tosh, teri, papirus, yog'och, qog'oz, qalam, dovot. Piktografik yozuvlar.	Dars soatlari hajmi
2.	Manba va matn, kitobat san'ati	Tekstologik jihatdan transkripsiya, ilmiy transliteratsiya va tabdil	2
3.	Hijriy yilni milodiy yil hisobiga tabdil qilish formulalari	Yil hisobi, hijriy va milodiy yil, abjad hisobi, muammo hamda tarix san'ati	2
4.	Abjad hisobi	Mumtoz matn bilan ishlashda lisoniy birlikliklarning o'rni, mumtoz matn amaliyotida tilshunoslik ilmining ahamiyati, matnshunoslikning faoliyat turlari	2

5.	Temuriylar davrida tarixiy manbalarga e'tibor	Xat turlari, yozuv turlari, Mirali tabriziy, Navoiy asarlari	2
6.	Arab harflarining ma'no jihatdan ifodalanishi, harfiy san'atlar	She'riy san'atlar, matnshunoslik qoidalari xat turlari, xattotlik ilmi	2
7.	Qo'lyozmalarning ichki va mazmuniy tuzilishi	Qo'lyozma nusxani davri, muallifi, adabiy muhiti, asar tarkibi hamda tasnifi.	2
8.	Qo'lyozmalarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi aosiy omillar	Qog'oz turlari, tekstologik tahlil, davriy jihatdan o'rganish	2
9.	Sharq tillaridagi davri XIX asr oxiri - XXasr boshlaridagi davriy nashriyotlarni o'rganish amaliyoti	Qog'oz turlari, tekstologik tahlil, davriy jihatdan o'rganish	2
10.	Konservatsiya va restavrayiya haqida tushuncha hamda sohaning yuzaga kelish tarixi	Qog'oz turlari, tekstologik tahlil, davriy jihatdan o'rganish, qo'lyozmani konservatsiyalash va ta'mirlashning bosqichlari	2
11.	Qo'lyozma hujjatlarni ta'mirlashda restovratorning mas'uliyati	Qog'oz turlari, tekstologik tahlil, davriy jihatdan o'rganish, qo'lyozmani konservatsiyalash va ta'mirlashning bosqichlari	2
12.	Qo'lyozma hujjatlarni ta'mirlash laboratoriyasi uchun zarur jihoz, uskuna va ashyolar	Adabiy manbalar matnshunosligida ixtisoslik malakasi. Ma'rifat asoslaridan xabardorlik masalasi. Mumtoz matn ta'hir qilish qoidalari	2
13.	Tarixiy hujjatlarni saqlash	Fanning bibliografik resursi. Qo'llanmalarga umumiy obzor. Qo'llanma mavzularini belgilashdagi ilmiy mezon	2
14.	Qozilik hujjatlarini o'qish amaliyoti	Davlatchilik tarixini xolisona o'rganishning ilmiy asoslari.	2
15.	O'zbek tilidagi qo'lyozma manbalarning nashriy matnlari	Arab, fors va turkey tillardagi manbalarni tadqiq etish.	2
16.	Arab va forsiy tilidagi qo'lyozma manbalarning nashriy matnlari	Ma'naviy merosimizning ajralmas qismi bo'lgan arab va fors tildagi matnlarni qiyosiy amaliyoti.	2
17.	Sharq tillaridagi arxiv hujjatlarini o'qish amaliyoti	Arxivlar va arxivshunoslik ishi haqida tushuncha hosil qilish.	2
18.	Qo'lyozma manbalarning tarjima va tabdil nashrlarini tayorlash jarayoni	Tarjima va tabdilning keng ahamiyati bilan bog'liq bo'lgan qarashlar, nuqtai nazarlar, kuzatishlarni ilmiy-tanqidiy o'rganish.	2
19.	Qo'lyozma manbalarning asl matni	Asl matn xususida umumiy	2

	bilan ishlash	tushuncha hosil qilish va uni mustqil o'rganish.	
20.	Qo'lyozma manbalar yuzasidan dastlabki ilmiy xulosa tayorlash	Manbalarning asosiy uslubiy prinsipi, tarixini kompleks o'rganish.	2
21.	Qo'lyozma manbalarning turlarini tasniflash tamoyillari	Manbalarni tarixi, ilmiy, adabiy turlarini klassifikatsiyalashtirib o'rganish mezonini..	2
22.	Hujjatlar kataloglari bilan ishlash	Ilmiy tadqiqotlar yo'nalishiga muvofiq tarzda axborot-kutubxona fondlarini o'rganish.	2
23.	Sharq tillaridagi arxiv hujjatlarini o'qish amaliyoti	Qadim qo'lyozma arxiv hujjatlarni foydalanuvchilarda taqdim etish.	2
24.	Sharq tillaridagi davri XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi davriy nashriyotlarni o'rganish amaliyoti	XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi Turkistonda jadidlarning taraqqiyparvar vakillari tomonidan ijod etilgan nashriyotlarni o'rganish.	2
25.	Qo'lyozmalarning tarkibiy va mazmuniy tuzilishi	Qo'lyozma asarlarning muqova, sarlavha, sahifa, hoshiya, matn kabi tomonlarini tekshirish.	2
26.	O'rganilgan davr manbalarini aniqlash	Qo'lyozma manbalarning sanasi, xattoti, xat turi, qog'oz ilmiy-tadqiqiy o'rganish.	2
Jami:			52 s

3. Seminar mashg'ulotlar

№	Seminar mavzulari	Qisqacha tavsifi (kalit so'zlar)	Dars soatlari hajmi
1.	"Epigrafika" kursining predmeti, kursning metodologik asoslari, maqsad va vazifalari	Yozuv tarixi, sharq yozuvlarning dastlabki namunalari, uning yaratilishidan asosiy maqsad	2
2.	Markaziy Osiyo tarixiga doir qo'lyozmalar, sharq tillaridagi yozuv turi, xat, qog'oz va ularning tavsiflari -kataloglari	O'rta Osiyo tarixiga oid qadimgi zamon yozma manbalarining o'ziga xos xususiyatlari.	2
3.	Sharq qo'lyozmalar kataloglari bilan ishlash uslublari	Katalog bilan tanishish, manbalarni tasniflash va davrlashtirish.	2

4.	Sharq qo'lyozmalarining ichki va tashqi manbaviy tahlil	Yozuv tarixi, sharq yozuvlarning dastlabki namunalari, uning yaratilishidan asosiy maqsad	2
5.	O'rganilgan davr manbalarini aniqlash	O'rta Osiyo tarixiga oid qadimgi zamon yozma manbalarining o'ziga xos xususiyatlari.	2
Jami:			10s

6. O'QUV ADABIYOTLARI VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar:

1. Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги кирраларни. – Т.: Akademnashr, 2015.
2. Эркин А. Матншуоелликка кириш. Т.: О'qituvchi, 1997.
3. В.А. Ahmedovning «O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari» Toshkent «O'qituvchi», 2001 y.
4. A.A. Madraimov, G. S. Fuzailova. Tarixiy manbashunoslik. - Toshkent: Fan, 2006 y.
5. Sbornie vostochnyx Rukopisey AN Respubliki Uzbekistan (SVR). Istoriya. / Sostaviteli: D.YU. YUsupova, R.P. Djalilova. T.: Fan, 1988 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Zohidov R. Sabotul ojjizin – ilmiy-adabiy manba. –T.:Muharrir, 2012.
2. Zufarov T. Xat ta'limi. –T.: Meriyus, 2010.
3. Sirojiddinov SH. XV–XIX asrlar tarixiy va tazkira-eesdalik asarlarida Alisher Navoiy hayoti va faoliyati talqini. – Samarqand: Zarafshon, 1997.
4. Xalidov A.B. Arabskie rukopisi i arabskaya rukopisnaya traditsiya. Moskva. Nauka, 1985 g.
5. Belyaev V.I. Arabskie istochniki po istorii turkmen i Turkmenii // Materialy po istorii turkmen i Turkmenii. T. 1. VII/XV vv. Arabskie i persidskie istochniki./M./L.: 1939 g.
6. Matyakubova M. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Xiva xonligida kitobat va kutubxona tarixi. Tarix fan. nom. avtoref.– T.,2008 y.
7. A.Erkinov, N.Polvonov, H.Aminov Muhammad Rahimxon II kutubxonasining fehrisi // Kitoblar, kutubxonalar, kataloglar. Toshkent: YAngi asr avlodi, 2009 y.
8. O.F.Akimushkin i dr. Persidskie i tadjikskie rukopisi Instituta narodov Azii AN SSSR (Kratkiy alfavitnyy katalog). Pod red. N.D. Mikluxo-Maklaya. CHast 1-2. – Moskva. 1964.
9. I.I.Bekmirzaev. Movarounnahrda qozilik hujjatlari: tarixiy ildizlar va tahliliy yondashuvlar. Toshken Islom universiteti. – Toshkent, 2014 y.
10. Shodmon Vohidov, Zoir CHoriev. Sadr-i Ziya i ego biblioteka. YAngi asr avlodi. – Toshken, 2007 y.

Internet saytlari

1. <http://kutubxona.uz>
2. <http://literature.uz>
3. <http://ziyonet.uz>
4. <http://alisher navoiy.uz>

8. O'QUV DASTURI HAQIDA MA'LUMOT

O'quv dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 202__ yil “__” “____” dagi “__”-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
“Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” kafedrasini mudiri, f.f.d., professor R.Zohidov _____ (imzo)
Tuzuvchilar: Azizullah Arral _____ (imzo) “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” kafedrasini dotsenti. Yo.Buxarbayev _____ (imzo) “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” kafedrasini o'qituvchisi.
Taqrizchilar: Jo'rayev J. _____ (imzo) Abu Rayhon nomidagi Qo'lyozmalar instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori; R.Zohidov. _____ (imzo) ToshDO'TAU “Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik” kafedrasini mudiri, f.f.d., dotsent